

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

G'aniyev Ilhom Dustnazarovich

Chirchiq davlat pedagogika universitetida katta o'qituvchi

Nodira Tokhlieva Solidjon-qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Tel: 95-007-97-01

E-mail: nodiratukhlieva@gmail.com

Annotatsiya

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarini ta'limda qo'llash ta'limni axborotlashitirishning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Axborot texnologiyalarini o'qitish ularning zamonaviy kompyuter texnologiyalariga oid egallaydigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim, texnologiya, axborot

Annotation

The use of information and communication technologies in education is one of the main parts of educational informatization. Installation of information technology for elementary school students serves as a foundation for the knowledge that management will acquire regarding modern computer technologies.

INTRODUCTION

O'zbekistonda 2023-yildan boshlab Boshlang'ich sinflarda Informatika va axborot texnologiyalari fani joriy etildi. Bu haqda maktabgacha va maktab ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023/2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'ida keltirib o'tildi. Bundan kelib chiqadiki, endi Informatika o'qituvchilarining oldida muhim bir vazifa ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilariga Informatika va axborot texnologiyalarini o'rgatishda zamonaviy va qulay metodlarni o'rganish turadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dasturlashni o'rgatish kelajak uchun foydali tajriba bo'lib xizmat qiladi. Bu muammoni hal qilish, mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchisining dunyoqarashi, bilimni o'zlashtirish darajasi va fikrlashi biroz farqli. Shu sababli, o'qituvchilardan yangicha yondashuv talab etiladi. Misol uchun, 1-sinf o'quvchisiga dastur kodini yozish, kompyuterda turli vazifalarni bajarib dasturlarda ishlash u darajada qiziq bo'lmasligi mumkin. Ammo, o'quvchi, deylik, kompyuter klaviaturasini yoki boshqa bir uskunani o'z qo'li bilan rangli qog'ozlar orqali yasab ko'rsa qiziqarli bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarda ranglarga va qo'l mehnati orqali yasashga bo'lgan qiziqish kuchli bo'ladi.

O'quvchilarga kompyuter yoki boshqa o'xshash texnologiyalarda ishlashni emas, aksincha, nima sababdan va qay yo'l bilan ishlashini, "Power tugmasini bosganimizda yonadi"-emas, balki, Power tugmasi qay tartibda ishlaydi?, Bir-biriga qanday bog'liqligi bor? kabi yo'nalishda dars olib borilsa maqsadga muvofiqdir. Bu orqali o'quvchilarda masalaga kreativ yondashuv, yangicha fikrlash va yaratuvchanlik shakllantiriladi. Eng muhimi esa, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishni o'rganadi. Quyidagi metodlar ham o'qituvchilarga darsni qiziqarli va samarali o'tkazishda yordam beradi:

O'quvchilarni qiziqtirish uchun interaktiv va o'yinga o'xshash tadbirlarni qo'shish. Misol uchun, ular o'rganayotgan dasturlash tushunchalari yordamida oddiy o'yinlar yoki animatsiyalar yaratish.

Turli platformalar yordamida oddiygina LED yoki sensor kabi qurilmalarni yasashni o'rganish. Bu ularga Robototexnikani o'rganishda yordam beradi.

Kichik guruh loyihalarini tayinlash orqali hamkorlik muhitini yaratish. Bu o'quvchilarni birgalikda ishlashga, fikr almashishga va bir-biridan o'rganishga ko'maklashadi

O'rganishni yanada qiziqarli qilish uchun o'yin elementlarini kiritish. Kodlash muammolari yoki loyihalarini bajarish uchun ball tizimi yoki mukofotlar yaratish. Ushbu yondashuv o'quvchilarni faol bo'lishga undaydi.

XULOSA

18-asrlarda insonlar musiqadan zavqlanishdi. 19-asrlarda pul insonlarni o'ziga rom qildi. Bizning davrimizga kelib esa texnologiya va dasturiy ta'minot Butun Jahonda o'z o'rnini egalladi. Bu shuni anglatadiki, kompyuterlarga sehrli qutidek qaramasligimiz uchun bizga dunyoga boshqacha nazar bilan qaraydigan insonlar kerak. Buyuk yaratuvchilar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ular yetishtiriladi. Shunday ekan, bunday yaratuvchilarni yetishtiruvchi ustozlardan katta mashaqqat va ma'suliyat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Linda Liukas. A delightful way to teach kids about computers.
2. Marc Scott. Primary coding with Fun.
3. Creative and Active Teaching. Dr. John Zubizarreta
4. Teaching computer Science. Danny Doucette.